

# ИЖТИМОЙ ТАДҚИҚОТЛАР ЖУРНАЛИ

9 ЖИЛД, 3 СОН

ЖУРНАЛ СОЦИАЛЬНЫХ ИССЛЕДОВАНИЙ

ТОМ 9, НОМЕР 3

JOURNAL OF SOCIAL STUDIES

VOLUME 9, ISSUE 3



# ИЖТИМОЙ ТАДҚИҚОТЛАР ЖУРНАЛИ

ЖУРНАЛ СОЦИАЛЬНЫХ ИССЛЕДОВАНИЙ | JOURNAL OF SOCIAL STUDIES

№3 (2026) DOI <http://dx.doi.org/10.26739/2181-9556-2026-3>

**Бош муҳаррир:**  
**Главный редактор:**  
**Chief Editor:**  
**Сеитов Азамат Пулатович**  
доктор социологических наук  
(Doctor of sociology, DSc)

**Бош муҳаррир ўринбосари:**  
**Заместитель главного редактора:**  
**Deputy Chief Editor:**  
**Сабирова Умида Фархадовна**  
доктор социологических наук  
(Doctor of sociology, DSc)

## ТАҲРИРИЙ МАСЛАҲАТ КЕНГАШИ | РЕДАКЦИОННЫЙ СОВЕТ | EDITORIAL BOARD:

22.00.01-Социология назарияси, методологияси ва тарихи. Социологик тадқиқотлар усуллари.  
Теория, методология и история социологии. Методы социологических исследований.  
Theory, methodology and history of sociology. Methods of sociological research.

**Бекмурад Мансур Бобомурадovich**  
доктор социологических наук, профессор (Узбекистан)  
**Каланов Комил Куллахматович**  
кандидат социологических наук, профессор (Узбекистан)  
**Убайдуллаева Раиса Турсуновна**  
доктор социологических наук, доцент (Узбекистан)  
**Негматова Шахзода Шухратовна**  
доктор философских наук, профессор (Узбекистан)  
**Шайылдаева Асель Кокоевна**  
кандидат социологических наук (Кыргызстан)

**Исмаилов Алишер Агзамович**  
доктор экономических наук, (Узбекистан)  
**Щепилова Галина Германовна**  
доктор философских наук, профессор (Россия)  
**Рожанский Михаил Яковлевич**  
кандидат философских наук (Россия)  
**Маматов Нормурат**  
доктор философских наук, профессор (Узбекистан)  
**Бурнашев Рустам Ренатович**  
кандидат философских наук, профессор (Казахстан)

22.00.02-Ижтимоий тузилиш, ижтимоий институтлар ва турмуш тарзи  
Социальные структуры, социальные институты и образ жизни  
Social structures, social institutions and way of life

**Умаров Абсалом Адилевич**  
доктор социологических наук, профессор (Узбекистан)  
**Холбеков Абдугани Жуманазарович**  
доктор социологических наук, профессор (Узбекистан)  
**Шайхисламов Рафаэль Бадретдинович**  
доктор социологических наук, профессор (Россия)  
**Акулич Мария Михайловна**  
доктор социологических наук, профессор (Россия)

**Антонио Алонсо Марсос**  
доктор политических наук, профессор (Испания)  
**Фадеева Любовь Александровна**  
доктор социологических наук, профессор (Россия)  
**Виктор Агаджаньян**  
доктор философии по социологическим наукам,  
профессор (США)  
**Абдулазизов Абдулвохид Хабибуллович**  
кандидат социологических наук, доцент (Узбекистан)

22.00.03-Ижтимоий онг ва ижтимоий жараёнлар социологияси.  
Социология социального сознания и социального процесса.  
Sociology of social consciousness and social process

**Аликариев Нуритдин Сапаркариевич**  
доктор экономических наук, профессор (Узбекистан)  
**Матибаев Тасполат Балтабаевич**  
доктор социологических наук, профессор (Узбекистан)  
**Николов Стефан**  
доктор философии по социологическим наукам, (Болгария)

**Мирзахмедов Абдирашид Мамасидикович**  
доктор философских наук, профессор (Узбекистан)  
**Ли Ци**  
доктор исторических наук, профессор (Китай)  
**Сухомлинова Марина Валерьяновна**  
доктор социологических наук, профессор (Россия)

[www.tadqiqot.uz](http://www.tadqiqot.uz) решают задачи, предусмотренные Стратегией Узбекистана 2030, направленные на развитие науки за счет внедрения достижений научных исследований ученых и служащих их признанию в международном научном сообществе. Так, каждой статье, опубликованной в журнале, присваивается номер DOI (Crossref). Журналы включены в международные индексные базы данных. Входит в список журналов ВАК Узбекистана.

22.00.01-Социология назарияси, методологияси ва тарихи. Социологик тадқиқотлар усуллари.  
Теория, методология и история социологии. Методы социологических исследований.  
Theory, methodology and history of sociology. Methods of sociological research.

**Пармонов Фарход Ярашевич**

доктор социологических наук, доцент (Узбекистан)  
**Жусубалиев Абдикайым Рысбаевич**  
кандидат социологических наук, доцент (Кыргызстан)  
**Алимухамедова Нодира Ядгаровна**  
доктор философии по философским наукам (Узбекистан)

**Камалова Хатира Сабыровна**

кандидат социологических наук, доцент (Узбекистан)  
**Тагиева Гулсум Гафуровна**  
доктор философии по социологическим наукам (Узбекистан)  
**Ахмедова Феруза Медетовна**  
доктор философии по социологическим наукам (PhD)  
(Узбекистан)

22.00.02-Ижтимоий тузилиш, ижтимоий институтлар ва турмуш тарзи  
Социальные структуры, социальные институты и образ жизни  
Social structures, social institutions and way of life

**Аликариёва Аълохон Нуриддиновна**

доктор социологических наук, доцент (Узбекистан)  
**Зайтов Элёр Холмаматович**  
доктор философии по социологическим наукам,  
доцент (Узбекистан)  
**Уразалиева Гулшода Бекпұлатовна**  
кандидат социологических наук, доцент (Узбекистан)

**Мирзахмедов Хуршид Абдирашидович**

доктор философии по социологическим наукам,  
доцент (Узбекистан)  
**Қаюмов Қахрамон Нозимжонович**  
доктор философии по социологическим наукам (Узбекистан)  
**Махкамов Қодиржон Одилжонович**  
доктор философии по социологическим наукам,  
доцент (Узбекистан)

22.00.03-Ижтимоий онг ва ижтимоий жараёнлар социологияси.  
Социология социального сознания и социального процесса.  
Sociology of social consciousness and social process

**Сеитова Зухрагон Пиржановна**

доктор социологических наук, доцент (Узбекистан)  
**Доспанова Дилара Уракбаевна**  
кандидат филологических наук, доцент (Узбекистан)  
**Рахимбаева Дилбархон Абдулхамитовна**  
кандидат философских наук, доцент (Узбекистан)

**Каримов Бобир Шаропович**

доктор социологических наук, доцент (Узбекистан)  
**Якубов Ильдар Харрасович**  
кандидат политических наук, доцент (Узбекистан)  
**Абдухалилов Абдулло Абдухамитович**  
доктор философии по социологическим наукам,  
доцент (Узбекистан)

Page Maker | Верстка | Саҳифаловчи: Хуршид Мирзахмедов

Контакт редакций журналов. [www.tadqiqot.uz](http://www.tadqiqot.uz)  
ООО Tadqiqot город Ташкент,  
улица Амира Темура пр.1, дом-2.  
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: [info@tadqiqot.uz](mailto:info@tadqiqot.uz)  
Тел: (+998-94) 404-0000

Editorial staff of the journals of [www.tadqiqot.uz](http://www.tadqiqot.uz)  
Tadqiqot LLC the city of Tashkent,  
Amir Temur Street pr.1, House 2.  
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: [info@tadqiqot.uz](mailto:info@tadqiqot.uz)  
Phone: (+998-94) 404-0000

# МУНДАРИЖА | СОДЕРЖАНИЕ | CONTENT

<b>1. Холбеков Абугани</b> ЛИТЕРАТУРНЫЙ МЕТОД КАК СОЦИОЛОГИЧЕСКИЙ ИНСТРУМЕНТ В АНАЛИЗЕ ТОТАЛИТАРИЗМА (НА ПРИМЕРЕ РОМАНА «1984»).....	8
<b>2. Султанова Эътибор</b> МЕХАНИЗМЫ ПОЛИТИКИ ТОЛЕРАНТНОСТИ В НОВОМ УЗБЕКИСТАНЕ.....	15
<b>3. Латипова Нодира</b> МЕСТО И РОЛЬ ПРОФЕССИОНАЛЬНОЙ ЭТИКИ В СОЦИАЛЬНОЙ РАБОТЕ.....	21
<b>4. G'afforova Mavlyuda</b> JAMIYAT HAYOTIDA XOTIN-QIZLARNING SOTSIOMADANIY QIYOFASI.....	29
<b>5. Tagiyeva Gulsum, Tursunboyev Jahongir</b> O'ZBEKISTONDA ISTIQBOLLI YOSH RAHBAR KADRLARNI TAYYORLASH TIZIMINING SOTSIOLOGIK TAHLILI.....	38
<b>6. Xolbekov Abdugani, Axmedov Tuychi</b> IJTIMOIY XAVFLAR SHAROITIDA MAHALLANING ROLI VA ANAMIYATI.....	51
<b>7. Якубов Ильдар</b> КОНЦЕПЦИИ УПРАВЛЕНИЯ В УСЛОВИЯХ ТРАНСФОРМАЦИИ РОЛИ ГОСУДАРСТВА: ПОЛИТИКО-СОЦИОЛОГИЧЕСКИЙ ПОДХОД.....	57
<b>8. Хасанова Мавлюда, Низамов Шохрухжон</b> РОЛЬ ПАТРИОТИЧЕСКОГО ОБРАЗОВАНИЯ В ФИЛИАЛАХ РОССИЙСКИХ ВУЗОВ В УЗБЕКИСТАНЕ.....	63
<b>9. Mannanova Nilufar</b> BUYUK BRITANIYA DAVLAT FUQAROLIK XIZMATIDA KOMPETENSIYA MODELLARINING RIVOJLANISH AMALIYOTI.....	71
<b>10. Berdimuratova Alima, Baymurzaev Azamat, Berdimuratov Nauriz</b> JAMIYATDA KORRUPSIYAGA QARSHI KURASHISHDA FUQAROLIK JAMIYATI INSTITUTLARINING ROLI.....	78
<b>11. Radjabova Aziza</b> XALQARO MUNOSABATLAR VA JAHON SIYOSATIDA GENDER FENOMENI: FEMINISTIK NAZARIYANING KONSEPTUAL YONDASHUVLARI.....	87
<b>12. Ixtiyarov Farxod</b> RAQAMLI TENGSIZLIKNI INKLYUZIV YONDASHUV ASOSIDA BARTARAF ETISH IMKONIYATLARI.....	93
<b>13. Ergasheva Mehribon</b> “GENDER MADANIYATI” TUSHUNCHASI: MOHIYATI VA ASOSIY JIHLATLARI.....	100
<b>14. Mengliyev Atabek</b> REPRODUKTIV SALOMATLIKNI BELGILOVCHI IJTIMOYIY DETEMINANTLAR: SOTSIOLOGIK TAHLIL.....	107


<b>15. Джураева Анна, Сеитов Азамат</b> СОЦИАЛЬНАЯ ЦЕНА УСТОЙЧИВОСТИ: УРОКИ КРИЗИСА 2008 ГОДА И РИСКИ “ГОЛЛАНДСКОЙ БОЛЕЗНИ” ДЛЯ УЗБЕКИСТАНА.....	118
<b>16. Mo‘minov Zokirjon</b> TASHQI MIGRATSIYA JARAYONLARINI YUQUMLI FUNKSIYALARI: IJTIMOIIY- STRAUKTURAVIY TAHLIL.....	125
<b>17. Husenov Sirojiddin</b> “HAR BIR OILA TADBIRKOR” HARAКATI SAMARADORLIGINI OSHIRISH MASALALARI.....	132
<b>18. Kalanova Sabohat, Saidov Ulug‘bek</b> RAQAMLI JAMIYATDA AVLODLAR ALMASHINUVI JARAYONLARINING DIFFERENSIATSIYASI.....	140
<b>19. Toshbo‘riyeva Sevara</b> TA‘LIM VA OILAVIY QO‘LLAB-QUVVATLASHNING YOSH AYOLLAR IJTIMOIIY MOBILLIGIGA TA‘SIRI (SURXONDARYO VILOYATI MISOLIDA).....	150
<b>20. Mannanov Erkin</b> ETNOTURIZMNING NAZARIY-METODOLOGIK ASOSLARIGA BIR NAZAR.....	157
<b>21. Артыкова Алёна</b> ОРИЕНТАЦИЯ НА ЧЕЛОВЕКА: НОВЫЙ ВЕКТОР РАЗВИТИЯ МАХАЛЛИ В УЗБЕКИСТАНЕ.....	164
<b>22. Zaitova Sitara</b> O‘ZBEKISTONDA KAM TA‘MINLANGAN OILALARNI MANZILLI QO‘LLAB- QUVVATLASH MEХANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH: MUAMMOLAR VA YECHIMLAR.....	177
<b>23. Raximjonova Gulzira</b> DAVLAT BOSHQARUVI SHAFFOFLIGINI TA‘MINLASHDA JAMOATCHILIK NAZORATINING O‘RNI: STATISTIK VA METODOLOGIK TAHLIL.....	186
<b>24. Ro‘yiddinova Aisha</b> O‘ZBEKISTONDA ISHONCHLI AXBOROT MUHITINING HOLATI VA UNING XALQARO KO‘RSATKICHLARDAGI O‘RNI.....	196
<b>25. Xaydarova Javohira</b> RAHBAR AYOLLARNING BOSHQARUV KOMPETENSIYALARINI RIVOJLANTIRISHNING MEХANIZMLARI.....	203

# ИЖТИМОЙ ТАДҚИҚОТЛАР ЖУРНАЛИ

## ЖУРНАЛ СОЦИАЛЬНЫХ ИССЛЕДОВАНИЙ | JOURNAL OF SOCIAL STUDIES

**Toshbo'riyeva Sevara,**  
O'zbekiston Milliy universiteti  
Sotsiologiya kafedrasi tayanch doktranti  
e-mail:Sevaratoshburieva88@gmail.com

### ТА'ЛИМ VA OILAVIY QO'LLAB-QUVVATLASHNING YOSH AYOLLAR IJTIMOY MOBILIGIGA TA'SIRI (SURXONDARYO VILOYATI MISOLIDA)

 <http://dx.doi.org/10.5281/zenodo.21111835>

#### ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada Surxondaryo viloyatida yashovchi 18-30 yoshli ayollarga ta'lim va oilaviy qo'llab-quvvatlashning ta'siri tahlil qilinadi. Tadqiqot zamonaviy jamiyatda ta'lim orqali yosh ayollarning ijtimoiy harakatchanligi va martaba ko'tarilishi imkoniyatlarini aniqlash uchun muhim ahamiyatga ega. Ushbu tadqiqot 51 ta respondent ishtirokida anketa usulidan foydalangan holda empirik tadqiqot orqali amalga oshirildi. Natijalar shuni ko'rsatadiki, ta'lim yosh ayollarning daromadiga ta'sir qilgan va ularning ish topish imkoniyatlarini oshirgan. Tadqiqot natijalariga ko'ra, oilaning qo'llab-quvvatlashi oliy ta'limni davom ettirishda hal qiluvchi omil bo'lib, yosh ayollarga moliyaviy va ruhiy barqarorlikni ta'minlaydi. Tadqiqot ta'lim va oilaviy qo'llab-quvvatlash o'rtasidagi munosabatlarni mustahkamlash uchun amaliy tavsiyalar beradi.

**Kalit so'zlar:** ta'lim, oilaviy qo'llab-quvvatlash, sotsial mobillik, yosh ayollar, daromad, bandlik darajasi.

---

**Тошбуриева Севара,**  
Базовый докторант кафедры Социологии  
Национального университета Узбекистана  
e-mail:Sevaratoshburieva88@gmail.com

### ВЛИЯНИЕ ОБРАЗОВАНИЯ И СЕМЕЙНОЙ ПОДДЕРЖКИ НА СОЦИАЛЬНУЮ МОБИЛЬНОСТЬ МОЛОДЫХ ЖЕНЩИН (НА ПРИМЕРЕ СУРХАНДАРЬИНСКОЙ ОБЛАСТИ)

#### АННОТАЦИЯ

В данной статье анализируется влияние образования и семейной поддержки на женщин в возрасте 18-30 лет, проживающих в Сурхандарьинской области. Исследование важно для определения возможностей социальной мобильности и карьерного роста молодых женщин посредством образования в современном обществе. Исследование проводилось эмпирическим методом с использованием анкетного метода с участием 51 респондента. Результаты показывают, что образование повлияло на доход молодых женщин и повысило их шансы на трудоустройство. Согласно результатам исследования, семейная поддержка является решающим фактором в продолжении высшего образования и обеспечивает финансовую и психологическую стабильность молодым женщинам. Исследование содержит практические рекомендации по укреплению связи между образованием и семейной поддержкой.

**Ключевые слова:** образование, поддержка семьи, социальная мобильность, молодые женщины, доход, уровень занятости.

**Toshburieva Sevara,**

basic doctoral student of the Department of Sociology  
of the National University of Uzbekistan  
e-mail:Sevaratoshburieva88@gmail.com

## INFLUENCE OF EDUCATION AND FAMILY SUPPORT ON SOCIAL MOBILITY OF YOUNG WOMEN (AS A SAMPLE OF SURKHANDARYA REGION)

### ABSTRACT

This article analyzes the impact of education and family support on 18-30-year-old women living in the Surkhandarya region. The research is significant to identify opportunities for young women's social mobility and career advancement through education in modern society. This research is implemented via empirical research, using the questionnaire method with the participation of 50 respondents. The outcomes indicate that education influences young women's income and increases their job opportunities. According to the research results, family support is a crucial factor in continuing higher education, as it provides them with both financial and emotional stability. The study offers practical recommendations to strengthen the relationship between education and family support.

**Keywords:** education, family support, social mobility, young women, income, employment rate.

### KIRISH

Hozirgi zamonaviy jamiyatda yosh ayol-qizlarning sotsial mobilligi masalasi amaliy va ilmiy ahamiyatga ega. Buning uchun, albatta, yosh ayol-qizlar uchun yaratilgan ta'lim imkoniyatlari va oiladagi o'zaro qo'llab-quvatlash muhiti ularning sotsial mobilligiga bevosita ta'sir qiladi. Nazariy bilim va kasbiy ko'nikmalarni oliy o'quv yurtlarida o'zlashtirish mehnat bozorida yosh ayol-qizlarning raqobatbardoshligini oshirsa, oilaviy qo'llab-quvvatlash muhiti esa ular uchun sifatli bilim olishini va kamroq stressli muhitni yaratadi. Qolaversa, bu imkoniyatlar yosh ayol-qizlar orasida oliy ta'limni davom ettirish va ularning yuqori ijtimoiy mavqeiga erishishiga asos bo'ladi. Shu sababli, ta'lim imkoniyatlari va oilaviy qo'llab quvvatlash integratsiyasini o'rganish O'zbekistondagi yosh ayol-qizlarning sotsial mobilligini rivojlantirishda asosiy omil hisoblanadi.

Ushbu maqolada olib borilgan tadqiqot Surxondaryo viloyatida yashovchi 18-30 yoshli 51 ta yosh ayol-qizlar orasida o'tkazildi va ularning sotsial mobilligiga ta'sir etuvchi yuqorida keltirilgan ikki sabab o'rganilib, sotsiologik jihatdan tahlil qilindi. Tadqiqot Google platformasida anketa so'rovnoma asosida olib borildi va 51 nafar oliy ma'lumotga ega va ega bo'lmagan respondentlar oilaviy qo'llab-quvvatlash, ta'lim shart-sharoitlari va ish topishdagi imkoniyati haqidagi savollarga o'zlarining xolis javoblarini berishdi. Ma'lumotlar yig'ib olingach, natijalarni tahlil qilishda taqqoslash va klassifikatsiya usullaridan foydalanildi. Shuningdek, respondentlarning javoblarini chuqurroq tahlil qilish maqsadida fenomenologik yondashuv elementalaridan ham foydalanildi. Ushbu tadqiqotning maqsadi shuki, ta'lim imkoniyatlari va oilaviy qo'llab-quvvatlash yosh ayol-qizlarning sotsial mobilligiga qanday ta'sir o'tkazdi va ta'lim ularning hayot sifatini qanday o'zgartirdi kabi savollarga respondentlarning bergan javoblarini tahlil qilish va olingan ma'lumotlarga asosanib o'zining amaliy tavsiyalarini berishdan iborat.

### METODOLOGIYA

Yosh ayol-qizlarning ijtimoiy mobilligini o'rganishda ta'lim imkoniyatlarini va oilaviy qo'llab-quvvatlash munosabatlarini tahlil qilishga qaratilgan sotsiologik tadqiqot yondashuviga asoslangan. Tadqiqot muammosini har tomonlama tahlil qilish uchun miqdoriy va sifat elementlarini o'zida mujassam etgan aralash metodologik yondashuv qo'llanildi.

Mazkur tadqiqot ijtimoiy mobillik, ijtimoiy kapital va ijtimoiy tarmoqlar nazariyasiga asoslanib, P.Sorokin [1], P.Bourdieu [2], J.Coleman [3], A.Giddens [4] hamda M.Granovetter [5] kabi olimlarning ilmiy yondashuviga asoslanadi. Ayniqsa, A.Giddensning strukturatsiya nazariyasi jihatdan, ijtimoiy tuzilmalar va individual imkoniyatlar o'zaro ta'sirda bo'lib, ta'lim va oilaviy qo'llab-quvvatlash ijtimoiy mobillikni shakllantiruvchi muhim omillar hisoblanadi.

Tadqiqot metodologiyasida tasniflash va qiyosiy tahlil usullari ma'lumotlarni tizimlashtirish va turli guruhlar o'rtasidagi tafovutlarni aniqlashda keng qo'llanildi [6]. Shuning bilan birgalikda, fenomenologik yondashuv elementlari qo'llanilib, respondentlarning subyektiv tajribasi hisobga olindi hamda tadqiqot jarayonida axloqiy me'yorlarga rioya qilindi [7].

### ASOSIY QISM


P.Sorokin ijtimoiy mobillikni jamiyatdagi ijtimoiy ierarxiya doirasida shaxslar, oilalar yoki guruhlarning yuqoriga yoki pastga harakatlanishi, ya'ni ularning ijtimoiy maqomidagi o'zgarishlar sifatida izohlaydi.

Yosh ayol-qizlarning ijtimoiy maqomidagi o'zgarishlar ikki muhim omilga: ta'lim imkoniyatlari va oilaviy qo'llab-quvvatlashga asoslanadi. Shu o'rinda, P. Bordieu tomonidan ishlab chiqilgan madaniy kapital tushunchasi ijtimoiy mobillikni yanada chuqurroq tushunishga imkon beradi. Madaniy kapital asosan oilaviy tarbiya jarayonida shakllanib, individlarning ta'limga bo'lgan munosabati hamda kasbiy rivojlanish haqidagi qarashlariga o'zining sezilarli ta'sirini ko'rsatadi. Shu orqali yosh ayol-qizlarning jamiyadagi sotsial mobilligi ham ma'lum darajada belgilab beriladi.

Yosh ayol-qizlarning ijtimoiy mobilligi avvalo, jamiyatdagi gender tengligi darajasi va ijtimoiy imkoniyatlarning teng taqsimlanishi bilan bevosita bog'liq jarayon hisoblanadi. Ularning yuqoriga yo'nalgan ijtimoiy mobillik darajasi ta'lim darajasi, ta'lim olishda va ishlashda oilaviy qo'llab-quvvatlash va mehnat bozoridagi kasbiy ko'nikmalari bilan belgilanadi. Shu o'rinda yosh ayol-qizlarning ijtimoiy mobilligini oshirishda ta'lim eng asosiy omil bo'lib xizmat qiladi. Ayniqsa, bu yosh ayol-qizlar uchun ijtimoiy faollik va iqtisodiy mustaqillikka erishishning asosiy sharti sifatida qaraladi. Tadqiqotlarda ayollarning ta'lim darajasi oshgan sari ularning mehnat bozoridagi ishtiroki va ijtimoiy mavqei ham sezilarli darajada yaxshilanib borishi qayd etilgan [8, – B.2-4]. Shu maqsadda, ushbu tadqiqotda ta'lim darajasiga ega bo'lgan va ega bo'lmagan yosh ayol-qizlarning bandlik darajasi, daromadi va ta'lim orqali erishgan yutuqlari anketa so'rovnomasi asosida o'tkazildi. Olingan natijalar tavsifiy, tasnifiy va qiyosiy tahlil yondashuvlari asosida tizimli ravishda tahlil qilindi. Ushbu yondashuvlar yosh ayol-qizlar o'rtasidagi ta'limga bo'lgan munosabat, oilaviy qo'llab-quvvatlash va iqtisodiy farovonlikka erishish o'rtasidagi bog'liklarni chuqurroq o'rganishga yordam berdi.

Tahlilning birinchi bosqichi respondentlar orasida ta'limga bo'lgan umumiy munosabatni o'rganishga qaratildi. Ushbu bosqichda, respondentlarga "Ta'lim hayotingizga qanday ta'sir o'tkazdi?" savoliga javob berildi va ular o'z hayotiy tajribasidan kelib chiqqan holda berishdi. Mazkur savolga berilgan javoblar ta'limning shaxsiy va kasbiy rivojlanishidagi rolini qanday baholashini aniqlashga xizmat qildi. Tasnifiy tahlilga ko'ra, respondentlarning katta qismi ta'lim ijtimoiy mobillikni oshirishda ijobiy ahamiyatga ega ekanligini ta'kidlashgan. Umumiy 51 nafar ishtirokchidan 31 nafari oliy ma'lumotga ega bo'lish ularning hayotini ijobiy tomonga o'zgartirganini, ish imkoniyatlari oshganini va ma'lum darajada iqtisodiy farovonlikka erishganini respondentlar javoblari orqali bilib olish mumkin. Bu natija shuni ko'rsatadiki, oliy ta'limga ega bo'lish yosh ayol-qizlar orasida sotsial mobillikni oshiruvchi omillardan biri ekanligi haqidagi nazariy farazni tasdiqlaydi. Shu bilan bir qatorda, ayrim respondentlar tomonidan ta'limga nisbatan salbiy yoki noaniq munosabatlar ham bildirilgan.

Xususan, 3 nafar ishtirokchi oliy ta'limga ega bo'lishning salbiy ta'sirini qayd etgan bo'lsa, 17 nafar respondentlar ta'limning ta'siri borasida aniq ijobiy yoki salbiy fikr bildirmagan bo'lib, bu ularning nisbatan neytral yoki befarq munosabatini anglatadi. Ushbu taqsimot oliy ta'limga ega bo'lishning umumiy jihatdan yuqori baholanishiga qaramay, uning ta'siri barcha individlar tomonidan bir xil darajada qabul qilinmasligini ko'rsatdi. Quyida, respondentlar tomonidan ta'limning shaxsiy hayotga ta'siri yuzasidan bildirilgan javoblarining taqsimoti grafik ko'rinishda keltirilgan (1-rasm):




**1-rasm. Respondentlarning "Ta'lim hayotingizga qanday ta'sir o'tkazdi?" savoliga munosabati**

Tahlilning navbatdagi muhim yo'nalishi sifatida oilaviy qo'llab-quvvatlash munosabati oliy ta'lim olish imkoniyati va ijtimoiy mobillikka ta'sir doirasi o'rganildi. Keltirilgan ma'lumotlarga ko'ra (2-rasmdagi diagramma), respondentlarning katta qismi oila tomonidan turli shakllarda qo'llab-quvvatlanishi qayd etgan. Bu qo'llab-quvvatlash asosan oila tomonidan hissiy rag'bat va moddiy yordam ko'rinishida namoyon bo'ladi va yosh ayol-qizlarning oliy o'quv yurtlarida tahsilni davom ettirish imkoniyatlarini oshirishga xizmat qiladi. Qolaversa, bu oilaviy yordam yosh ayol-qizlarning jamiyatda faol tarzda ijtimoiy rollarda ishtirok etishiga va o'z ijtimoiy mavqeini oshirishda barqaror va nisbatan kam bo'lgan stresssiz muhitni yaratadi. Oila tomonidan beriladigan moddiy ko'mak yosh ayol-qizlarning o'qishiga nisbatan mas'uliyat bilan yondashishga va ish topish imkoniyatlarini oshirish maqsadida turli kasbiy ko'nikmalarni o'zlashtirishga yordam beradi.

11. Oila o'qishingizni qo'llab-quvvatladimi?

50 ОТВЕТОВ



**2-rasm. Oila o'qishingizni qo'llab-quvvatlaydimi?**

Diagramma tahlili shuni ko'rsatadiki, 50 nafar respondentlar ichida 86 foizi oliy ta'limni davom ettirishida oila ularni moddiy va ma'naviy tomondan qo'llab-quvvatlanishi bildirilgan. Qolgan 14 foiz respondentlar esa oilaviy qo'llab-quvvatlash mavjud emasligini yoki yetarli darajada emasligini qayd etgan bo'lib, bu holat ularning oliy ta'limni davom ettirishda qiyinchiliklarga duch kelishini ko'rsatadi. Shuni ham aytib o'tish kerakki, so'rovnoma oliy ta'limga ega bo'lgan va ega bo'lmagan yosh ayol-qizlar orasida o'tkazilgan bo'lib, jamiyatimizda oliy ta'lim olish imkoniyatini yaratishda oilaviy ko'mak oldingi yillarga qaraganda sezilarli darajada oshgan. Xususan, O'zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo'mitasi ma'lumotlariga ko'ra, 2016-yilda 18-23 yoshdagi ayollarning oliy ta'limga qamrovi 5.6 foizni tashkil etgan bo'lsa, 2024-yilga kelib ushbu ko'rsatkich 52.4 foizga yetgan [9]. Bu shuni anglatadiki, so'nggi yillarda yosh ayol-qizlar orasida oliy ta'limga kirish darajasi sezilarli darajada oshganini va taxminan 9 barobarlik o'sishni ko'rsatadi.


Oliy ta'limga ega bo'lish yosh ayol-qizlar orasida kasbiy ko'nikmalarni o'zlashtirishda va bandlik darajasini oshirishda muhim omil hisoblanadi. Shu o'rinda aytib o'tish kerakki, inson kapitali

(inglizcha, “human capital”) – bu insonning bilim, ko‘nikma, tajriba, sog‘liq va malaka kabi sifatlari yig‘indis bo‘lib, u mehnat unumdorligi va iqtisodiy qiymatini oshiradi [10, – B.15-16]. Qolaversa, inson kapitali g‘oyasiga ko‘ra, odamning ta‘lim olishi, kasb o‘rganishi yoki sog‘lig‘iga investitsiya qilishi kelajakda uning daromadini va jamiyatdagi o‘rnini yaxshilaydi.

3-rasmida keltirilgan ma‘lumotga ko‘ra, 90,4 foiz respondent oliy ta‘limga ega bo‘lish ishga joylashish imkoniyatini sezilarli darajada oshirishi ta‘kidlagan. Bu esa oliy ta‘limning mehnat bozorida raqobatbardoshlikni kuchaytiruvchi muhim omil ekanini va bandlik darajasiga ijobiy ta‘sirini ko‘rsatadi. Shuningdek, respondentlarning 9.6 foizi ta‘limning ish toppish jarayonida muhim element emasligini ta‘kidlagan. Bu esa ayrim ishtirokchilarning mehnat bozorida ishga joylashishda oliy ta‘limdan ko‘ra boshqa faktorlarni (kasb-hunar faoliyati, o‘z-o‘zini band qilish va mustaqil tadbirkorlik faoliyati) muhim deb hisoblashini ko‘rsatadi.

14. Ta‘lim ish topishda muhimmi?

52 ответа



### 3-rasm. Ta‘lim ish topishda muhimmi?


Garchi oliy ta‘lim olish imkoniyatlari oshgan bo‘lsa-da, bandlik darajasi bilan bog‘liq muammolar hanuz saqlanib qolmoqda. Xususan, yuqori malakali kadrlar sonining ortib borishi mehnat bozorida mos ish o‘rinlari bilan to‘liq ta‘minlanmayotgani sababli, ta‘lim va bandlike o‘rtasida muayyan nomutanosiblik yuzaga kelmoqda. Buning natijasida, ayrim hollarda oliy ma‘lumotga ega shaxslar ham doimiy va barqaror ish bilan ta‘minlanishda qiyinchiliklarga duch kelmoqda.

Bu holat mehnat bozorida talab va taklif o‘rtasidagi tafovut, kasbiy yo‘naltirishning yetarli darajada samarali emasligi hamda amaliy ko‘nikmalar va ish beruvchilar talablari o‘rtasidagi moslikning pastligi bilan izohlanadi. Shuningdek, vaqtinchalik bandlike va norasmiy ish faoliyatining mavjudligi ham bandlike darajasining barqaror shakllanishiga salbiy ta‘sir ko‘rsatmoqda.

Daromad va mehnat faoliyati darajasiga ko‘ra, respondentlar orasida daromadga ega va daromadsizlar ulushi teng – har biri 50 foizni tashkil qiladi (4-rasm).

9. Daromadingiz bormi?

52 ответа



#### 4-rasm. Daromadingiz bormi?

Mazkur holat oliy ta'limga ega bo'lgan va ega bo'lmagan respondentlar kesimida kuzatilib, daromad manbaiga ega bo'lish har doim ham ta'lim darajasi bilan to'liq bog'liq emasligini ko'rsatadi. Shuningdek, bu hali hanuz oliy ta'limga ega yoshlar orasida bandlik va daromad masalasida muayyan muammolar saqlanib qolayotganini anglatadi.


Qolaversa, respondentlardan bandlik darajasini bilish maqsadida, ularni 3 ta:

1. doimiy bandlik
2. Vaqtinchalik ish
3. ishsiz

kabi kategoriyaga bo'lindi. Quyidagi diagramma (5-rasm) ga ko'ra, ishsizlar ulushi doimiy (34,6%) yoki vaqtinchalik (19,2%) ishga ega bo'lganlardan ancha yuqori (46,2) va bu ko'rsatkich shuni anglatadiki, oliy ta'limga ega bo'lganlar ham oilaviy muammolar (turmush o'rtog'ining ishlashga yoki oliy o'quv yurtlarida tahsil olishga ruxsat bermasligi, farzandli bo'lish va qaynota-qaynona xizmati) sababli yoki oliy ta'limga ega bo'lmagan respondentlar mehnat bozorida layoqatli kadr sifatida baholanmasligi tufayli ishsizlik darajasi o'ta yuqori hamda ijtimoiy mobillik darajasi ham o'ta past miqdorda.

10. Ishingiz qay darajada?

52 ответа



#### 5-rasm. Ishingiz qay darajada?

Shunday qilib, tadqiqot natijalari ishsizlikning yuqori darajasi nafaqat iqtisodiy omillar, balki ijtimoiy va madaniy cheklovlar bilan ham chambarchas bog'liq ekanini ko'rsatdi. Oliy ta'limning mavjudligi mehnat bozorida barqaror bandlikni ta'minlamayotganligi, ijtimoiy mobillikning pastligi esa jamiyatda teng imkoniyatlar masalasini yanada dolzarb qilib qo'ymoqda. Shu bois, ishsizlikni kamaytirish va ijtimoiy mobillikni oshirish uchun yosh ayol-qizlarning iqtisodiy faoliyatda qatnashuvini rag'batlantiruvchi daasturlarni kuchaytirish lozim.

#### XULOSA

Ta'lim va oilaviy qo'llab-quvvatlash yosh ayol-qizlarning ijtimoiy mobilligini shakllantiruvchi markaziy omillar sifatida namoyon bo'lmoqda. Surxondaryo viloyatida olib borilgan tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, ta'lim imkoniyatlari kengaygani sari yosh ayol-qizlarning iqtisodiy faolligi oshmoqda, biroq bu jarayon hali to'liq barqaror mehnatga jalb etilish va teng ijtimoiy imkoniyatlar bilan to'la ta'minlanmagan. Oliy ta'limning mavjudligi ijtimoiy pog'onada yuqorilash imkonini bersa-da, oilaviy va madaniy cheklovlar hali hanuz saqlanib qolmoqda.

Umumiy tadqiqot natijalari:

1. Ta'lim yosh ayol-qizlarning mehnatga layoqatliligini oshiradi, biroq bandlik barqaror emas.
2. Oila tomonidan beriladigan moddiy va ma'naviy qo'llab-quvvatlash oliy ta'limni davom ettirishda hal qiluvchi ahamiyatga ega.
3. Ishsizlik darajasi yuqori bo'lib, ayollarning iqtisodiy mustaqillik darajasi past.
4. Mehnat bozori talablariga mos kasbiy tayyorgarlik va yo'naltirish tizimi yetarli emas.

5. Ijtimoiy-madaniy qadriyatlar ayollarning ta'lim va mehnatdagi ishtirokiga sezilarli ta'sir ko'rsatmoqda.

Tavsiyalar:

1. Oilaviy-ma'naviy qo'llab-quvvatlash dasturlarini kengaytirish – ayollarni o'qish va ishlashga ruhiy tayyorlaydigan mexanizmlarni kuchaytirish kerak.

2. Kasbiy yo'naltirish markazlarini rivojlantirish – bozor ehtiyojlariga mos yangi kasblarga o'qitish tizimi yaratish zarur.

3. Masofaviy ta'lim va ish imkoniyatlarini kengaytirish – ayniqsa bolali ayollar uchun moslashuvchan modellarni ishlab chiqish muhim.

4. Mahalliy darajada ayollar uchun mentorlike tarmoqlarini yaratish – tajribali mutaxassis ayollar orqali yoshlarni yo'naltirish tizimini shakllantirish.

5. Ijtimoiy himoya va bolalar parvarish tizimini kengaytirish – ish va oilaviy majburiyatlarni muvofiqlashtirish imkonini beradigan ijtimoiy mexanizmlarni kuchaytirish.

6. Mintaqaviy ijtimoiy mobillikni rag'batlantirish – o'quv almashinuvlari, amaliyot dasturlari va mehnat migratsiyasi orqali ayollarga yangi ijtimoiy tajriba orttirish imkonini yaratish.

7. Ayollar tadbirkorligini qo'llab-quvvatlash – grantlar, imtiyozli kreditlar va biznes inkubatorlarini rivojlantirish zarur.

Xulosa qilib aytganda, ayollarning ta'lim va mehnatda faol ishtiroki ijtimoiy mobillikni oshirish, ijtimoiy tenglikni ta'minlash va jamiyatda innovatsion fikrlashni kuchaytiruvchi asosiy omil bo'lib, u O'zbekiston jamiyatida tizimiy o'zgarishlarga turtki beruvchi ijtimoiy dinamik kuch sifatida shakllanmoqda.

#### Adabiyotlar/ Литература/ References:

1. Sorokin P.A. Social mobility. New York: Harper&Brothers, 1927.
2. Bourdieu P. Forms of Capital. In: J. Richardson (ed.) Handbook of Theory and Research for the Sociology of Education. New York: Greenwood Press, 1986.
3. Coleman J.S. Social Capital in the Creation of Human Capital. American Journal of Sociology, Vol. 94, 1988, pp. 95- 120.
4. Giddens A. The Constitution of Society: Outline of the Theory of Structuration. Cambridge: Polity Press, 1984.
5. Granovetter M. The Strength of Weak Ties. American Journal of Sociology, Vol. 78, No. 6, 1973, pp. 1360-1380.
6. Bryman A. Social Research Methods. Oxford University Press, 2016.
7. Saunders M., Lewis P., Thornhill A. Research Methods for Business Students. Pearson Education, 2019.
8. Heath R., & Jayachandran, S. (2016). The Causes and Consequences of Increased Female Education and Labor Force Participation in Developing Countries. National Bureau of Economic Research.
9. O'zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo'mitasi. Ayollarning oliy ta'limdagi ishtiroki bo'yicha rasmiy ma'lumotlar. 2024-yil. stat.uz
10. Becker G. S. Human Capital: A Theoretical and Empirical Analysis, with Special Reference to Education. Chicago: University of Chicago Press. 1993.

# ИЖТИМОЙ ТАДҚИҚОТЛАР ЖУРНАЛИ

ЖУРНАЛ СОЦИАЛЬНЫХ ИССЛЕДОВАНИЙ  
JOURNAL OF SOCIAL STUDIES

**Контакт редакций журналов. [www.tadqiqot.uz](http://www.tadqiqot.uz)**  
ООО Тадқиқот город Ташкент,  
улица Амира Темура пр.1, дом-2.  
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: [info@tadqiqot.uz](mailto:info@tadqiqot.uz)  
Тел: (+998-94) 404-0000

**Editorial staff of the journals of [www.tadqiqot.uz](http://www.tadqiqot.uz)**  
Tadqiqot LLC The city of Tashkent,  
Amir Temur Street pr.1, House 2.  
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: [info@tadqiqot.uz](mailto:info@tadqiqot.uz)  
Phone: (+998-94) 404-0000